IRFAN
AKADEMIYASI
ILM • TA'LIM • TARAQQIYOT

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

TABIIY FANLAR

va barqaror rivojlanish:

zamonaviy ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va amaliy yechimlar

OKTABR | TOSHKENT O'ZBEKISTON

- Biologiya va biotexnologiya
- Kimyo va kimyoviy texnologiyalar
- Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi
- Geografiya va geologiya
- Tibbiy-biologik tadqiqotlar
- Qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslardan foydalanish

Ilm – barqaror kelajak garovi

BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASINING VUJUDGA KELISHI, SHAKLLANISHI VA GLOBALLASHUVI

Sanayeva Munisa Ilamonovna
Nizomiy Ganjaviy nomidagi O‘zMPU
mustaqil tadqiqotchisi
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.23804217

Annovatsiya. Mazkur maqolada barqaror rivojlanish konsepsiyasining vujudga kelishi, uning insoniyat taraqqiyotining uzoq muddatli istiqbolini ta’minlashga qaratilgan zamonaviy rivojlanish modeli ekanligi**,** xususan, mamlakatimizda ekologik ta’lim-tarbiya ishlarining samaradorligi, Barqaror rivojlanish konsepsiyasining shakllanishi jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarning integratsiyalashuvi bo‘yicha fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish konsepsiyasi, ekologik ta’lim, ekologik muammolar, insoniyat taraqqiyoti, xalqaro tashabbuslar, barqaror rivojlanish g‘oyalari, ekologik mas'uliyat.

Dunyo miqyosida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqlim o‘zgarishiga moslashish hamda ta’lim muassasalarida barqaror rivojlanish ta’lim muhitini joriy etish masalalari insoniyat oldida turgan eng muhim global muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Suv va havo resurslarining ifloslanishi, chiqindilar miqdorining ortib borishi, tabiiy muvozanatning buzilishi barqaror rivojlanish g‘oyalarini jamiyat hayotining barcha sohalariga, xususan, ta’lim tizimiga keng joriy etishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning barqaror rivojlanish konsepsiyasi bo‘yicha kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Jahon barqaror rivojlanish maqsadida xalqaro va mintaqaviy ekologik ta’limga oid dasturlar zaruriyatini tan olmoqda va dunyo ta’lim tizimining yangi konsepsiyasida ijtimoiy va ekologik qatlamdagi ekologik muammolarni yaxlit ko‘ra oluvchi, tahlil etuvchi, tizimli va

ijodiy fikrlovchi, meta-kompetentli mutaxassislar tashkil etishi ta’kidlangan. Bu borada, jahondagi “Kelajak dunyo ta’lim federatsiyasi” – “World Futures Studies Federation” [165][1] dasturida “Environmental Education Link”, Londondagi «Education For Our Common Future” barqaror rivojlanishning ta’limiy portali (GDLN) kabilar ekologik ta’limning rivoji uchun samarali xizmat qilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda ekologik ta’lim-tarbiya ishlarini samarali tashkil etish bo‘yicha bir qancha islohatlar amalga oshirilib, xususan, Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati va manfaatlari oliy qadriyat sifatida e'tirof etilib, fuqarolarning sifatli ta'lim olish, sog‘lom va qulay atrof-muhitda yashash hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga oid konstitutsiyaviy huquqlari mustahkamlab qo‘yilgan. Shuningdek, davlatning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash hamda ekologik madaniyatni yuksaltirish borasidagi majburiyatlari belgilangan. Mazkur konstitutsiyaviy normalar ta'lim tizimida, xususan, umumiy o‘rta ta'lim muassasalarida o‘quvchilarda barqaror rivojlanish g‘oyalari, ekologik mas'uliyat, tabiiy resurslarga ehtiyotkorona munosabat va barqaror rivojlanish kompetentligini shakllantirishning huquqiy asosini yaratadi.

Barqaror rivojlanish (Sustainable Development) konsepsiyasi insoniyat taraqqiyotining uzoq muddatli istiqbolini ta’minlashga qaratilgan zamonaviy rivojlanish modeli bo‘lib, u hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish jarayonida kelajak avlodlar manfaatlariga zarar yetkazmaslik tamoyiliga asoslanadi. Mazkur konsepsiya tabiiy resurslarning cheklanganligi, ekologik muammolarning kuchayishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarning ortib borishi sharoitida vujudga kelgan bo‘lib, iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik barqarorlikning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlashni nazarda tutadi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasining shakllanishi jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarning integratsiyalashuvi muhim ahamiyat kasb etdi. Dastlab ushbu tushuncha atrof-muhitni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan yondashuv sifatida qaralgan bo‘lsa,

[1] En.mwikipedia.org, https://wfsf.org/

keyinchalik u jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarini qamrab oluvchi kompleks nazariy modelga aylandi. Natijada barqaror rivojlanish uzoq muddatli farovonlikka erishishning muqobil va samarali yo‘li sifatida e’tirof etildi.

Hozirgi kunda jahon miqyosida barqaror rivojlanish konsepsiyasining turli nazariy yondashuvlari va amaliy modellar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning aksariyati ta’lim tizimi orqali jamiyat ongiga singdirilmoqda. Ayniqsa, barqaror rivojlanish g‘oyalarini ta’lim sohasiga joriy etishda yetakchi oliy ta’lim muassasalari muhim rol o‘ynamoqda. Jumladan, Universität Freiburg, Stanford University, University of Cambridge, University of California, Berkeley, Leuphana University Lüneburg, Columbia University, University of Tokyo, Australian National University, University of Cape Town hamda ETH Zurich kabi oliy ta’lim muassasalari o‘z ta’lim dasturlari va ilmiy tadqiqotlari orqali barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarini chuqur o‘rganish va targ‘ib qilishga katta e’tibor qaratmoqda.

Mazkur oliy ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar va ta’lim dasturlari global ekologik muammolar, ijtimoiy tenglik, resurslardan oqilona foydalanish hamda iqlim o‘zgarishiga moslashuv kabi masalalarga yechim topishga qaratilgan bo‘lib, barqaror rivojlanish konsepsiyasining globallashuviga xizmat qilmoqda. Natijada barqaror rivojlanish g‘oyalari nafaqat akademik muhitda, balki davlat siyosati va xalqaro hamkorlik darajasida ham ustuvor yo‘nalishga aylanmoqda.

Barqaror rivojlanish uchun ta'lim konsepsiyasining rivojlanishida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish muhim yo‘nalish sifatida e'tirof etiladi. Xalqaro tadqiqotlarda tizimli fikrlash, tanqidiy tahlil, hamkorlik va mas'uliyatli qaror qabul qilish barqaror rivojlanishning asosiy kompetensiyalari sifatida ko‘rsatiladi. Barqaror rivojlanish uchun ta'limning shakllanishi ekologik ta'lim bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va xalqaro tashabbuslar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ekologik ta'limning mazmuni hamda metodlarini takomillashtirish ushbu konsepsiyaning rivojlanishiga zamin yaratgan.

Barqaror rivojlanish uchun ta'lim (Education for Sustainable Development – ESD) 2005–2014-yillardagi BMTning Barqaror rivojlanish uchun ta'lim o‘n yilligi davomida global ta'lim siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Ushbu tashabbuslar barqaror rivojlanish tamoyillarini barcha ta'lim bosqichlariga integratsiya qilishning xalqaro metodologik asoslarini shakllantirdi. Rio+20 konferensiyasi va BMT tomonidan qabul qilingan "The Future We Want" hamda "2030 Agenda for Sustainable Development" hujjatlari barqaror rivojlanishning global strategik yo‘nalishlarini belgilab berdi. Ushbu hujjatlarda ta'lim Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning asosiy vositasi sifatida e'tirof etilgan.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasining ilmiy-nazariy asoslarini rivojlantirishda bir qator taniqli olimlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Amartya Sen, Elinor Ostrom, Johan Rockström, David W. Pearce, Herman Daly hamda E.F.Schumacherlarning tadqiqotlari barqaror rivojlanish tushunchasining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarini chuqur ilmiy asoslab berdi. Ushbu olimlarning ishlari barqaror taraqqiyotning nazariy poydevorini mustahkamlash bilan birga, uning amaliyotga joriy etilishiga ham xizmat qilmoqda.

Shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida ham barqaror rivojlanish tushunchalarini ta’lim tizimiga tatbiq etish bo‘yicha izchil ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Lomonosov Moscow State University, Saint Petersburg State University, Baku State University, Yerevan State University, Taras Shevchenko National University of Kyiv, Belarusian State University, Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, Al-Farabi Kazakh National University, Tajik National University kabi oliy ta’lim muassasalarida barqaror rivojlanish masalalari ilmiy va ta’limiy jihatdan tadqiq etilmoqda.

Umuman olganda, barqaror rivojlanish konsepsiyasi tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanib, bugungi kunda globallashuv sharoitida jamiyat rivojlanishining strategik yo‘nalishiga aylangan. Ushbu konsepsiyaning ta’lim tizimiga, xususan, maktab ta’limiga

integratsiyalashuvi o‘quvchilarda barqaror rivojlanish kompetentligini shakllantirishning muhim nazariy-uslubiy asosi bo‘lib xizmat qiladi.

XXI asr ta'limi shaxsning bilim olish bilan bir qatorda birgalikda yashash, mehnat qilish va o‘zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilishi zarur. Ushbu yondashuv barqaror rivojlanish uchun ta'limning konseptual asoslaridan biri hisoblanadi. Barqaror rivojlanish uchun ta'lim xalqaro miqyosda shaxsning global kompetensiyalarini, madaniyatlararo muloqotini, tanqidiy fikrlashini va mas'uliyatli fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Ushbu yondashuv Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishning muhim nazariy asoslaridan biri hisoblanadi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasining ta’lim tizimiga kirib kelishi bilan ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni o‘zaro bog‘liq holda o‘rgatishning muhim vositasiga aylandi. Xalqaro tadqiqotlarda barqaror rivojlanish g‘oyalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilishning samarali yo‘nalishi sifatida e’tirof etiladi.

MDH mamlakatlarida barqaror rivojlanish, ekologiya, ijtimoiy mas’uliyat va iqtisodiy barqarorlik masalalari ta’lim va ilmiy tadqiqotlar yo‘nalishida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu mamlakatlardagi ko‘plab oliy ta’lim muassasalari o‘z ta’lim tizimlarida zamonaviy pedagogik va ilmiy yondashuvlarni tatbiq etib, barqaror rivojlanish konsepsiyasini ta’lim jarayoniga integratsiyalashga intilmoqda. Bunday oliy ta’lim muassasalari nafaqat barqaror rivojlanish bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash, balki mazkur yo‘nalishda fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar olib borish, yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishda ham faol ishtirok etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - O‘zbekistan Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 1.05.2023 yil.

2. Rauch F., Steiner R. Competences for Education for Sustainable Development in Teacher Education // CEPS Journal. 2013. Vol. 3. No. 1. P. 9–24.

3. Rauch F., Steiner R. Welche Kompetenzen braucht Bildung für Nachhaltige Entwicklung? // Haushalt in Bildung & Forschung. 2012. Vol. 1. No. 1. P. 13–24.

4. Environmental Learning: Hopes for the Next 10 Years // Environmental Education Research. 2006. Vol. 12. No. 3–4. P. 445–457.

5. UNESCO. (2014a). Shaping the Future We Want: UN Decade of Education for Sustainable Development (2005–2014). Final Report. http://unesdoc.unesco.org/images/0023/002301/230171e.pdf (Accessed 14 June 2016).

6. United Nations. (2012). The Future We Want. Outcome Document of the United Nations Conference on Sustainable Development, Rio de Janeiro, Brazil, 20–22 June 2012. https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/733FutureWeWant.pdf (Accessed 16 October 2016).

7. Delors, J. (1996). Learning: The Treasure Within. Report to UNESCO of the International Commission on Education for the Twenty-first Century. Paris: UNESCO.

8. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2016). Global Competency for an Inclusive World. https://www.oecd.org/pisa/aboutpisa/Global-competency-for-an-inclusive-world.pdf (Accessed 29 October 2016).

9. Wang H., Xu B. The Literature of Environment Education and Sustainable Development Education in Secondary School // Journal of Inner Mongolia Normal University (Education Science Edition). 2008. No. 8. P. 113–116.

10. En.mwikipedia.org, https://wfsf.org/

11. https://www.un.org/ru/ga/unep/index.shtml.